

FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT

(2022-yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 3 913,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 17,0 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sdi.

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra doimiy aholi soni 3 913,4 ming kishiga yetdi.



Tirik tug'ilganlar soni 22,0 ming kishi



2022-yil boshiga nisbatan 17,0 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan



O'lganlar soni 43 ming kishi



Shahar aholisi 2 197,7 ming kishi



Nikohlar soni 5,3 ming birlik




Qishloq aholi soni 1715,7 ming kishi



Ajrimlar soni 1,2 ming birlik




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022-yil 1-aprel holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yil 1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 300,7 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 267,0 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 97,3 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 80,8 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa tumanida 2,7 %ni va Dang'ara tumanida 2,5 %ni, Uchko'prik tumanida 2,4 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Qo'qon shahrida 1,5 % va Beshariq tumanida 1,7 %ni tashkil etdi.


Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi
(2022-yil 1-aprel holatiga, %da)



Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi (2022-yil 1-aprel holatiga, %da)



Tug'ilish. 2022-yilning yanvar-mart oylarida 22,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,8 promilleni tashkil etdi hamda 2021-yilning mos davriga nisbatan 1,9 promillega oshganligi kuzatildi (2021-yilning yanvar-mart oylarida 20,9 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-mart 1000 aholiga nisbatan, promille)





Tug'ilish koeffitsiyenti

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.


Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(2022-yil yanvar-mart oylari bo'yicha, ming kishi)

2022-yil



Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar-mart)

Yillar




Ming kishi

Vafot etganlar. 2021-yilning yanvar-mart oylarida 4,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,3 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,2 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 foizi o'simtalardan, 8,2 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 9,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 257 nafarni tashkil etib, ularning 32,7 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 35,8 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,3 foizi tug'ma anomaliyalardan, 1,2 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,6 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,5 foizi yuqumli vaparazitar kasalliklardan va 10,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi




Tabiiy o'sish. 2022-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 18,3 ming kishini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 2,0 ming kishiga (2021-yilning yanvar-mart oylarida 16,3 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (ming kishi)


(yanvar-mart)

Yillar




Nikoh. 2022-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,5 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-mart, ming)



Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti


(2022-yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikohdan ajralishlar. 2022-yilning yanvar-mart oylarida 1,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etdi.


Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar-mart, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti

(2022-yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Aholi migratsiyasi (2022-yil yanvar–mart, kishi)



Migratsiya. 2022-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2411 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3015 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosini minus 604 kishi bo'lib, 2021-yilning o'tgan shu davrida minus 1216 kishi bo'lgan.

2022-yilning yanvar-mart oylarida migratsiya saldosining eng yuqori kamayishi darajasi Marg'ilon shahrida minus -190 kishi va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona shahrida 216 kishi qayt etildi.



**Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi. tel:(373) 249-87-32**